



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### AMIR TEMURNING YOSHLAR TARBIYASIGA OID QARASHLARI

Ilmiy rahbar: X.U.Samatov

TATU Samarqand filiali

Talabasi:Ergashev Diyorbek O'rolivich

Telekommunikatsiyafakulteti

TT-23-04 guruh talabasi.

#### Annotatsiya:

Ushbu maqolada buyuk sarkardalardan biri Amir Temurning yoshlar tarbiyasiga va Turkiy xalqlarning mo‘g‘illar zulmidan ozodligi to‘g‘risida ma’lumot bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, ilm, ta‘lim, madrasa, islom, talimot, qur‘on, din, xadis.

Kimning aqli va shijoatini sinov tarozusida tortib ko‘rib, boshqalarnikidan ortiqroq ko‘rsam, uni tarbiya qilib, amirlik darajasiga ko‘tarar edim.

So‘ngra ko‘rsatgan xizmatiga yarasha martabasini yana-da oshirar edim.<sup>1</sup>

#### Amir Temur

Mamlakatimizda kamol topgan ulug‘ muhandislar, foziliu fuzalolarning nomini butun dunyoda yaxshi bilishadi. Bobokalonlarimiz bilan nafaqat faxrlanish, balki ularning boy manaviy merosini tadkik va targ‘ib etish burchimizdir.<sup>2</sup>

Sohibqiron Amir Temur (1336-1405 y) jahon tarixida muhim iz qoldirgan va dunyo xalqlari sivilizatsiyasiga mislsiz hissa qo‘shgan insondir. Bu buyuk siymo o‘z nomlari bilan o‘rta asrlarda ulkan sultanatlarga asos soldi, bunyodkor, fan va madaniyat homiysi, adolat va xalqparvar hukmdor sifatida tarix sahifalariga o‘zlarining muborak nomlarini abadul-abad muhrladi.<sup>3</sup>

Amir Temur, ko‘plab mashhur muarrixlar ta’kidlaganidek, ilmning qadriga yetadigan, uni rivojlantirishga astoydil bel bog‘lagan, dunyoning yetuk olimlari,

<sup>1</sup> <https://hikmatlar.uz/author/16>

<sup>2</sup> [/kun.uz/uz/news/2022/04/21/birinchi-navbatda-bobolarimiz-tarixini-organishimiz-kerak-prezident-amir-temurning-jang-mahorati-haqida-gapirdi](https://kun.uz/uz/news/2022/04/21/birinchi-navbatda-bobolarimiz-tarixini-organishimiz-kerak-prezident-amir-temurning-jang-mahorati-haqida-gapirdi).

<sup>3</sup> <https://daryo.uz/2022/04/21/ozim-uchun-ham-bu-yangilik-boldi-shavkat-mirziyoyev-amir-temur-mudofaa-merosi-haqida-gapirdi>.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

tarixchilar bilan bemalol suhbatlasha oladigan donishmand hukmdor edi. Ilm-fanga qiziqish Amir Temurning bolalik chog‘larida oilasidan boshlangan edi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Sohibqiron xonadonida farzandlar (shahzodalar, malikalar)ga ilm-fanning turli sohalaridan ko‘p saboqlar berilar, madrasalarda tahsil olish davom ettirilardi. Sohibqiron boshlab bergen sa’y-harakatlari tufayli uning avlodlari orasida Muhammad Sulton, Ulug‘bek Mirzo, Ibrohim Sulton, Boysunqur Mirzo, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ko‘chkunchixon, Komron Mirzo, Gulbadanbegim, Zebunniso kabi shoirlar, olimlar, muarrixlar, xattotlar, ma’naviyat va ma’rifat jonkuyarlari bor bo‘lib, ular ilm-fan, ma’naviyatning qadriga yetadigan ajoyib insonlar bo‘lib yetishdi. Ulug‘bek Mirzoning astronomiya maktabi aynan Samarqandda yaratildi. Zamonaning ilg‘or rasadxonasi barpo etildi. 1018 ta yulduz ta’rifini o‘z ichiga olgan “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” jadvali jahon faniga ulkan hissa bo‘lib qo’shildi. “To‘rt ulus tarixi” asari esa xalqimiz tarixini anglab yetishda katta ahamiyatga ega. Sohibqiron Amir Temur davri tarixini to‘liq va ishonarli yoritib bergen Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” (1425) asari Sohibqironning nabirasi, Sheroz hokimi, shoir va xattot Ibrohim Sultonning rahbarligi, fidoyiligi va homiyiligi ostida dunyoga keldi. 1519-yilda Ulug‘bek Mirzoning nabirasi Ko‘chkunchixon-6- topshirig‘i bilan mazkur “Zafarnoma” va Rashiduddinning “Jome ut-tavorix” asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Qolaversa, jahon adabiyotining buyuk namoyandalaridan hisoblangan Alisher Navoiyning ijodi, Lutfiy va Husayn Boyqaro she’riyati, Qozizoda Rumiy va Ali Qushchi asarlari, Kamoliddin Behzodning durdona miniatyura rasmlari, Zahiriddin Muhammad Boburning bebaho “Boburnoma”si, go‘zal she’riyati, ilmiy asarlari, muarrixlar G‘iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, Muiniddin Natanziy, Hafizi Abro‘, Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxon, Xondamirning solnomalari – barcha-barchasi temuriylar davrining mahsulidir. Amir Temur tinchliksevar, bunyodkor xalqning farzandi, tabiatan ma’rifatparvar bo‘lib tug‘ilgan o‘xshashi yo‘q zot edi. Amr etdimki, – deb yozadi.<sup>4</sup>

Bunyodkorlik Sohibqiron davrida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan edi deyish mumkin. Amir Temur faqat o‘z mamlakatidagina emas, balki boshqa yurtlarda ham bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgani buning dalilidir. Saltanat poytaxti qilib belgilangan Samarqandni dunyoning eng obod shahariga aylantirdi, ulug‘vorligini

<sup>4</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2022/04/21/amir-temur/>



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ko'rsatish uchun, atrofida Damashq, Bag'dod, Misr, Sheroz, Sultoniyalari kabi dunyoning mashhur shaharlari nomlari bilan atalgan, bog'-rog'larga ko'milgan qishloqlar barpo qildirdi. Amir Temur, ko'plab mashhur muarrixlar ta'kidlaganidek, ilmning qadriga yetadigan, uni rivojlantirishga astoydil bel bog'lagan, dunyoning yetuk olimlari, tarixchilari bilan bemalol suhabatlasha oladigan donishmand hukmdor edi. Ilm-fanga qiziqish Amir Temurning bolalik chog'larida oilasidan boshlangan edi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Sohibqiron xonadonida farzandlar (shahzodalar, malikalar)ga ilm-fanning turli sohalaridan ko'p saboqlar berilar, madrasalarda tahlil davom ettirilardi.<sup>5</sup>

Sohibqiron boshlab bergen sa'y-harakatlari tufayli uning avlodlari orasida Muhammad Sulton, Ulug'bek Mirzo, Ibrohim Sulton, Boysunqur Mirzo, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ko'chkunchixon, Komron Mirzo, Gulbadanbegim, Zebunniso kabi shoirlar, olimlar, muarrixlar, xattotlar, ma'naviyat va ma'rifat jonkuyarları bor bo'lib, ular ilm-fan, ma'naviyatning qadriga yetadigan ajoyib insonlar bo'lib yetishdi. Ulug'bek Mirzoning astronomiya maktabi aynan Samarqandda yaratildi. Zamonaning ilg'or rasadxonasi barpo etildi. 1018 ta yulduz ta'rifini o'z ichiga olgan "Ziji jadidi Ko'ragoniy" jadvali jahon faniga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. "To'rt ulus tarixi" asari esa xalqimiz tarixini anglab yetishda katta ahamiyatga ega. Bu an'analar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning davlat, siyosat va ilmiy faoliyatida ham davom etib kelmoqda. Amir Temurning hayoti va faoliyati Yevropa olimlarining tadqiqotlarida doimo tarixiy haqiqat sifatida yoritilganligi tafsisinga sazovordir.<sup>6</sup>

Shu tufayli, hatto sovet imperiyasi sharoitida ham, Amir Temur haqidagi haqihat bizga Amerikadan, Buyuk Britaniyadan, Fransiyadan, Germaniyadan va boshqa mamlakatlardan yetib kelar edi. Bugungi kunda, mustaqil O'zbekiston -7-sharoitida, tarixiy haqiqatni aytish imkoniyati vujudga kelganda quyidagi fakt ni alohida aytib o'tish joizdir. Sohib-ul-qiron tarixini Ispaniyada Ryui Gonzales de Klavixo, Fransiyada arxiepiskop Joan, Angliyada Xristofer Marlo, Eduard Gibbon, Germaniyada Iogannes Shiltberger kabi xorijlik olimlar va sayohatchilar yozgan edi.

<sup>5</sup>[https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12789\\_1\\_492CE21AA8C996084180736D503611FEDEC6B091.pdf](https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12789_1_492CE21AA8C996084180736D503611FEDEC6B091.pdf)

<sup>6</sup> <https://www.facebook.com/IPCUszbekistan/posts/amir-temur-va-fransiya-kitobi-muallifi-akademik-akmal-xolmatovich-saidov-bilan-x/1909808429327447/>.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Ularning asarlarida Pyotr I, Buyuk Fridrix, Napoleon Bonapart kabi ulug' taxt egalari va lashkarboshilar Amir Temurning davlat boshqaruvi tajribasidan keng foydalangan edilar, deb ta'kidlanadi. Bugungi kunda biz Amir Temurning hayoti va faoliyati haqida jiddiy tadqiqotlar olib borgan olima Xilda Xukxem ismini chuqr minnatdorlik hissi bilan tilga olamiz. U Sohib-ul-qironning merosini o'rganish maqsadida bir necha bor Markaziy Osiyo davlatlari poytaxtlariga tashrif buyurdi. Uning "yetti burj hokimi" deb nomlangan kitobi Markaziy Osiyo xalqlari va Temurning shaxsiga bo'lgan chuqr hurmat bilan sug'orilgan. Hozirgi kunda bu nashr xalqimizning sevimli kitoblaridan biriga aylandi. Biz yevropaning xaloskorii Temurning haykali oltindan quyilgan go'zal Fransiyaga o'z hurmatimizni izhor etamiz va albatta biz hozirgi kunda xorijda Temur davrini tadqiq etayotgan olimlarga o'z minnatdorchiligidan bildiramiz. Biz Sizlarni ulug' bobomizning tuprog'ida ko'rib turganimizdan va qutlashdan xursandmiz. Bugun Samarqandda ko'p mamlakatlardan tashrif buyurishi Sohib-ul-qironning xizmatlari butun dunyoda tan olinishining belgisidir. Amir Temur bugun ham mustaqil O'zbekiston manfaatlariga, davlatimizning iftixori va ulug'vorligi ramzidir. Amir Temurning 686 yilligiga bag'ishlangan bugungi ilmiy-amaliy konferensiya buning yorqin dalilidir. Shubhasiz, mazkur konferensiya o'z taraqqiyot yo'lini tanlagan mustaqil O'zbekiston xalqi, shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlarining dunyo hamjamiyati bilan yaqinlashuviga xizmat qiladi.<sup>7</sup>

Renessans - fransuzcha-uyg'onish, qayta tug'ilish ma'nosini anglatadi. Birinchi Renessans IX-XII asrlarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu davr dunyo ilmida "Musulmon Renessansi"(A.Mets), "Sharq uyg'onishi"(N.Konrat) nomi bilan atalib kelinmoqda. IX-XII asrlarda Sharqda ilm-fan va din rivojlangan edi. Ilm-fan va dinning rivojlanishiga Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziyy va boshqa buyuk allomalarimiz o'z hissalarini qo'shgan. Bu kabi buyuk allomalarimizni yozgan asarlaridan butun dunyoda asrlar davomida balki hozirgi kunda ham foydalanilmoqda. Ko'p o'tmasdan ikkinchi Renessans ham boshlandi. Ikkinchi Renessans Temuriylar davri bilan bog'liq bo'lib Amir Temur taxtga kelishi bilan

<sup>7</sup> <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/amir-temur-haqidagi-kitob-maktab-uquvchilari-uchun-foydalanishga-tavsiya-qilinmasin>



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

boshlanadi. Ikkinci Renessans birinchi Renessansga nisbatan keng qamrovga egadir.<sup>8</sup>

Amir Temurning olib borgan tadbirlari, siyosatlaridan bilishimiz mumkin. Aynan shu davrda Yevropada ham Renessans(uyg'onish) davri shakllanayotgan edi. Amir Temurning taxtga kelishi ham ancha mashaqqat va sinovlar bilan amalga oshdi, shuning uchun ham u olib borgan siyosat va tadbirlar butun dunyoni titratdi. Amir Temurning har bir chaqirgan kengashida dunyoviy masalalar hal qilingan. Amir Temur jang qilishdan oldin kengash chaqirgan, kengashda hal qilinadigan masala Payg'ambarimiz hadislari, otasi va ustozlarining maslahatlari bilan ko'rib chiqilgan. Uning pirlaridan biri Shayx Zayniddin Abu Bakr Toybodiyo Amir Temurga "Kuch-adolatda" so'zleri o'yib yozilgan tillo uzuk, ikkinchi piri hisoblangan Mir Sayyid Baraka esa birinchi uchrashuvdayoq sultanat timsoli bo'lgan nog'ora va bayroq tuhfa qilgan edilar. O'zining ruhiy madadi, ko'magi bilan Sohibqironga kamarbasta bo'lib kelgan Mir Sayid Baraka to so'nggi nafasgacha Amir Temur bilan birga umrguzaronlik qilgan. Amir Temur jahonning to'rtta mashhur sarkardalaridan biri, ulug' lashkarboshi xudo bergen salohiyatini to'la-to'kis namoyon eta olgan, tengi yo'q buyuk armiya qo'mondoni edi. Bir qancha janglarda g'alaba qozonib Movarounnahr hukmdori bo'ldi va Temuriylar davlatiga asos soldi. Amir Temur hujumlari natijasida ko'plab hududlarni egalladi va islom dinini ham yoydi. Islom dinini keng yoyishda katta hissa qo'shganlar orasida sakkizinchisi Amir Temur hisoblanadi. Amir Temur: "Dilimning mashrig'idan ko'tarilgan birinchi tuzigim har yerda va har qachon islom diniga va Muhammad (s.a.v)ning shariatlariga rivoj berish bo'ldi"-deb aytib o'tgan. Amir Temur bir tug' ostida katta hududni birlashtira oldiki (tarixchilar Amir Temur imperiyasi o'sha paytda 27 ta davlatni birlashtirganini qayt etadi. Bugungi kunda esa bu hudud 40ga yaqin davlatga to'g'ri keladi), o'sha yillari ko'hna va hamisha navqiron Samarqand deyarli yer yuzining bosh kentiga aylandi.<sup>9</sup>

Amir Temur va Temuriylar davrida iqtisodiyot, ilm-fan, san'at-madaniyat gullabyashnaganini bugungi sinchilar ham tasdiqlaydi va bu davr insoniyat tamaddunidagi ikkinchi Renessans deb baholangan. O'sha davrda san'at va adabiyotda xususan

<sup>8</sup> <https://www.fayllar.org/amir-temurning-tarbiyaviy-qarashlari-bajardi-akramova-diyora-m.html>.

<sup>9</sup> <https://www.bukhari.uz/?p=27651&lang=oz>.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

me'morchilikda katta yutuqlarga erishildi. Me'morchilikda yetti yuz yildan buyon yetib bo'lmaydigan yutuqlar qo'lga kiritilgan. Masalan, shu davrda foydalanilgan bo'yoqlar tarkibida nimalar borligi shu kungacha aniqlanmagan. Bu kabi yutuqlarni tahlil qilgan Turkiya Prezidenti Mustafo Kamol Otaturk hayratda qolib shunday dedi: Men Amir Temur zamonida bo'lsaydim, uning qilgan ishlarini bajara olmasdim. U mening zamонимда kelsaydi, qilgan ishlarimdanda juda ko'p buyuk ishlarni ado etgan bo'lardi. Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo ham o'z kundaliklarida Amir Temurning qurdirgan binolari, sug'orish inshootlari, bog'lari haqida va davlat boshqaruvi haqida yozib o'tadi. "Amir etdimki,-deb yozadi Amir Temur" Tuzuklarda katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsunlar, faqiru miskinlarga langarxona(musofirxonan) solsunlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsunlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlansinlar. Har bir shaharda dorul-amorat(hukmdor saroyi) va dor ul-adolat(adolat saroyi) qursunlar". Bundan ko'rinib turibdiki Amir Temur buyuk shaxs vaadolatli hukmdor bo'lgan bo'ysundirgan yerlarda ham bunyodkorlik ishlarini olib borgan. Bu haqida Yevropa olimlaridan biri V.V. Bartold shunday dedi, - "Amir Temur jonboz bunyodkor edi, u ajoyib bog'-rog'li muhtasham inshootlari barpo etdi, shahar va qishloqlarni tikladi. Sug'orish tizimlari barpo qilindi va ta'mirlandi, rasmiy tarix ta'biriga ko'ra, u ekin ekishga yaroqli bir qarich yerni ham bekor qo'ymasdi".<sup>10</sup>

"Temur tuzuklari"— Amir Temurning harbiy va siyosiy faoliyatidan ma'lumot beruvchi tarixiy asar. "Tuzuki Temur" va "Tuzukoti Temur" nomlari bilan atalgan. Amir Temurning "Tuzuklar" muallifi ekanligini e'tirof etadigan olimlar ko'pchilikni tashkil etadi. Bular orasida "Temur tuzuklari"ning inglizcha tarjimonlari va noshirlari Devi va Uaytlar, mashxur turk qomusiy olimi Shamsuddin Somiy, qo'lyozmalarning yirik tadqiqotchisi N.D. Mikluso Maklaylar ham bor. Boshqa bir guruh olimlarning fikricha, asar 16—17-asrlarda Hindistonda yozilgan.

Yevropa olimlarini lol qoldirgan bunyodkorlik ishlarigina emasdi, bundan tashqari Ulug'bek Mirzoning xuddi Amir Temur kabi olib borgan ishlari ham bunga qo'shimcha bo'lgan edi. Ulug'bek Mirzo davrida bunyod etilgan madrasalar va kutubxonalar ham Yevropa elchilarini hayratga qoldirgan. Hozirgi

<sup>10</sup>[https://www.researchgate.net/publication/369977912\\_Temur\\_Va\\_Temuriylar\\_da\\_vrimanbalaridan\\_-Temurnoma\\_asari\\_haqida](https://www.researchgate.net/publication/369977912_Temur_Va_Temuriylar_da_vrimanbalaridan_-Temurnoma_asari_haqida).



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

kungacha Ulug‘bek Mirzoning bunyod ettirgan Rasadxonasi ham dunyo olimlarini tan olishiga majbur qildi. Uning 1018 ta yulduzni qo‘zg‘almas o‘rnini aniqlaganligi va rasadxona hozirgi vaqt bilan bir soatu ikki sekund adashganligi ham hayratga loyiqidir. . Biz bundan faxrlanamiz, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ham shunday degan:,-“Sohibqiron Amir Temurning shaxsi uning avlodlari bo‘lmish faqat bizning emas. Bu haqida Ulug‘bek Mirzoning “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari 1018 ta qo‘zg‘almas yulduzlar haqida asosiy ma’lumot beradi..11

Xulosa shuki Amir Temur o‘z davlati qudratini yuqori ko‘tarib dunyoga tanitadi. Amir Temur johillik, yovuzlikni, zo'ravonlikni yoqtirmasdi. Insonparvar,adolath hukmdor edi. Masalan, “Temur tuzuklari” hukmdorning hokim iyatni boshqarish qoidalari ham da odob-axloq me’yorini belgilab beruvchi yo’riqnomadir. Taniqli ohm Bo’riboy Ahmedov “Temur tuzuklari” podsholarning turish-turm ush va axloq-odob normalarini belgilovchi risoladir, deb ta’riflaydi. Haqiqatan ham, mazkur asarni turm ush odobi, hulq-odob qoidalari tartib berilgan an’anaviy asarlar qatoriga qo’ysak bo’ladi. Zero, tarixan talimiyl-axloqiy asarlaming barchasida ham dastlab davlatni boshqarishga oid qarashlar, so’ng axloq me’yorlari bayon etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islom ensiklopediyasi. -T. : O’zbekiston milliy ensiklopediyasi,2004.
2. Ummataliyev. S. Ilk islam tarixidan oltin sahifalar. Ummaviylar davri. -T. : O’qituvchi, 2021. – 296 B.
3. Jaloliddin Suyuti.(Tarjimon Abdulloh Shokirov). Tarix al-Xulafo. -T. : Sharq, 2020. – 472 B.

### VEB SAYTLAR.

4. <https://daryo.uz/2022/04/21/ozim-uchun-ham-bu-yangilik-boldi-shavkat-mirziyoyev-amir-temur-mudofaa-merosi-haqida-gapirdi>.
5. <https://kun.uz/uz/news/2022/04/21/birinchi-navbatda-bobolarimiz-tarixini-organishimiz-kerak-prezident-amir-temurning-jang-mahorati-haqida-gapirdi>.
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/04/21/amir-temur/>

<sup>11</sup> <https://pedagoglar.uz/index.php/ped/article/download/2346/881/939>.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

7. <https://www.facebook.com/IPCUzbekistan/posts/amir-temur-va-fransiya-kitobi-muallifi-akademik-akmal-xolmatovich-saidov-bilan-x/1909808429327447/>.
8. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/amir-temur-haqidagi-kitob-maktab-uquvchilari-uchun-foydalanishga-tavsiya-qilinmasin>.
9. <https://www.fayllar.org/amir-temurning-tarbiyaviy-qarashlari-bajardi-akramova-diyora-m.html>.
10. <https://www.bukhari.uz/?p=27651&lang=oz>.
11. <https://pedagoglar.uz/index.php/ped/article/download/2346/881/939>.
12. <https://buxdu.uz/yangiliklar/1215/temur-tuzuklarining-yoshlar-tarbiyasidagi-orni/>.